

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“O‘ZBEK SHEVALARI TADQIQOTLARI:
AMALIYOT, METODOLOGIYA VA YANGICHA
YONDASHUV”**

mavzusidagi

Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari

(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining 75 yilligi
munosabati bilan tashkil etilgan)

2021-yil 22-may

TOSHKENT – 2021

“O‘zbek shevalari tadqiqotlari: amaliyot, metodologiya va yangicha yondashuv”
mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari - Mas’ul muharrir:
Sh.Sirojiddinov - Y. 2021 205 bet

Mas’ul muharrir:

Sh.Sirojiddinov

filologiya fanlari doktori, professor

Tahrir hay’ati:

S.Normamatov - filologiya fanlari doktori (DSc)

I.Azimov - filologiya fanlari nomzodi, dotsent

B.Abdushukurov - filologiya fanlari doktori, professor

T.Tog’ayev - filologiya fanlari nomzodi, dotsent

M.Rahmatov - filologiya fanlari nomzodi, dotsent

S.Adilova - filologiya fanlari nomzodi, dotsent

N.Ahmedova - filologiya fanlari nomzodi, dotsent

M.Hakimova - filologiya fanlari doktori (DSc)

M.Umurzoqova - fil. fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)

Z.Xidraliyeva - o’qituvchi

Ushbu to’plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek tilshunosligi kafedrasini tomonidan taniqli tilshunos olim, professor **Samixon Ashirboyev** tavalludining 75 yilligi munosabati bilan “O‘zbek shevalari tadqiqotlari: amaliyot, metodologiya va yangicha yondashuv” mavzusidagi 2021-yil 22-mayda o‘tkazilgan Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallaridan tashkil topgan.

To’plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o’quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin.

To’plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashi yig‘ilishining 2021-yil 4-maydagi 13-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

Bu borada G'ozim Olim dastavval o'z tasnifini e'lon qiladi hamda u o'zbek shevalarini yirik uch lahja asosida tarkib topganligini qayd qiladi. Bu tasnif hali fanga ma'lum emasligi tadqiqot nazariy qimmatini belgilaydi. Ayon bo'ladiki, «Maorif va o'qitg'uchi» jurnalidagi maqolasi orqali o'zbek tilini uch lahjaga dastlab ajratgan E.D.Polivanov emas, balki G'ozim Olim Yunusov ekanligi fanga endi ma'lum bo'lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Reshetov V.V., Shoabdurahmonov SH. O'zbek dialektologiyasi. –T.: O'rta va oliy maktab, 1962.
2. Поливанов Э.Д. Узбекская диалектология и узбекский литературный язык. – Т.: Узгосиздат, 1933.

DENOV SHEVALARINING O'RGANILISHI

Anvarbek Turdialiyev
tayanch doktorant,
ToshDO'TAU

Annotatsiya

Surxondaryo shevalari tadqiqotchilar e'tiborini tortib kelgan. Bu hudud shevalari bo'yicha A. Mamatqulov, X. Alimurodov, S. Rahimovlarning ishlari mavjud. Bu ishlarda hudud shevalarining fonetik, leksik, morfologik xususiyatlari to'g'risida ilk ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, bu sheva faktlarini til korpusiga joylashtirish bo'yicha ham tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu maqolada shu hududning kichik bir zonasi – Denov shevasi tahlilga tortilgan va undagi qarluq shevasining qipchoq shevasi va tojik tili bilan aloqasida ta'sir doirasi mavjudligi isbotlandi, ya'ni Denov shevasi dastlab areal tadqiq e'tiladi.

Kalit so'zlar: sheva, dialekt, qarluq, qipchoq, tojik tili, fonetika, metodologiya, leksika.

Annotation

Surkhondaryo dialects have attracted the attention of researchers. There are works of A. Mamatkulov, H. Alimurodov, S. Rakhimov on the dialects of this region. These works provide the first information

about the phonetic, lexical and morphological features of regional dialects. There has also been research into the placement of these dialect facts in the language corpus. This article analyzes a small area of the region, the Denau dialect, and proves that the Qarluq dialect has a sphere of influence in relation to the Kipchak dialect and the Tajik language.

Keywords. dialect, dialect, Qarluq, Kipchak, Tajik language, phonetics, methodology, lexicon

Surxondaryo o'zbek shevalari XX asr boshlarida Rus va o'zbek dialektologlari tomonidan o'rganila boshlangan. Olib borilgan tadqiqotlar shevani tavsifiy jihatdan o'rganilganligi ma'lum bo'lmoqda. Ushbu shevalarning lingvistik kartalarini tuzish ham tajriba qilingan.

Surxon vohasi etnik tarkibini tashkil qiluvchi o'troq aholi miloddan avvalgi 4-5-asrlardagi Xolchayon va Dalvarzintepa hududlarida istiqomat qilganliklari aniqlangan [Пугаченкова, 1966: 117]. Miloddan avvalgi 2-1 minginchi yillarda bu hududda baqtriyaliklar, sug'diylar yashaganlar, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanganlar, yetishtirgan mahsulotlarining xaridorlari ko'chmanchi turkiylar bo'lgan. Yunon-Baqtriya davlatidan keyin Kushonlar davrida Rim tarixchisi Yustin (mil. avv. 2-3-asr), Pompey Troglarning (mil. avv. 1- asr) ma'lumotiga ko'ra, bu hududda assiylar(assianlar), passianlar, toharlar, sakaroukalar, eftaliylar (4-6-asrlarda) yashaganlar. VI-VIII asrlarda surxon vohasi hududiga qarluq, xalach, chigil qabilalari kelib o'rnamshgan. Tohariston qarluq yabg'ulari qo'lida bo'lgan [Пугаченкова, 1990:15]. IX-X asrda Janubiy Chag'oniyonda (hozirgi Denov va Qumqo'rg'on) ko'chib kelgan arablar mahalliy tojik va turkiy qabilalarga singib ketgan, ularning tili ham joylashgan hududiga qarab o'zbek shevalari yoki tojik tiliga almashgan. X-XII asrlarda Arg'in ko'chmanchi turkiy qabilalar kelib o'troqlashgan. Tarixchi etnograf G'.X.Tog'ayev Surxon vohasi aholisi lahjasi, antropologik tarkibi, turmush tarzi, xo'jalik urf-odatlarini, urug'-qarindoshchilik an'analarining o'ziga xos xususiyatlarini uch guruhga bo'lgan:

about the phonetic, lexical and morphological features of regional dialects. There has also been research into the placement of these dialect facts in the language corpus. This article analyzes a small area of the region, the Denau dialect, and proves that the Qarluq dialect has a sphere of influence in relation to the Kipchak dialect and the Tajik language.

Keywords. dialect, dialect, Qarluq, Kipchak, Tajik language, phonetics, methodology, lexicon

Surxondaryo o'zbek shevalari XX asr boshlarida Rus va o'zbek dialektologlari tomonidan o'rganila boshlangan. Olib borilgan tadqiqotlar shevani tavsiliy jihatdan o'rganilganligi ma'lum bo'lmoqda. Ushbu shevalarning lingvistik kartalarini tuzish ham tajriba qilingan.

Surxon vohasi etnik tarkibini tashkil qiluvchi o'troq aholi miloddan avvalgi 4-5-asrlardagi Xolchayon va Dalvarzintepa hududlarida istiqomat qilganliklari aniqlangan [Пугаченкова, 1966: 117]. Miloddan avvalgi 2-1 minginchi yillarda bu hududda baqtriyaliklar, sug'diylar yashaganlar, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanganlar, yetishtirgan mahsulotlarining xaridorlari ko'chmanchi turkiylar bo'lgan. Yunon-Baqtriya davlatidan keyin Kushonlar davrida Rim tarixchisi Yustin (mil. avv. 2-3-asr), Pompey Troglarning (mil. avv. 1- asr) ma'lumotiga ko'ra, bu hududda assiylar(assianlar), passianlar, toharlar, sakaroukalar, eftaliylar (4-6-asrlarda) yashaganlar. VI-VIII asrlarda surxon vohasi hududiga qarluq, xalach, chigil qabilalari kelib o'rnamshgan. Tohariston qarluq yabg'ulari qo'lida bo'lgan [Пугаченкова, 1990:15]. IX-X asrda Janubiy Chag'oniyonda (hozirgi Denov va Qumqo'rg'on) ko'chib kelgan arablar mahalliy tojik va turkiy qabilalarga singib ketgan, ularning tili ham joylashgan hududiga qarab o'zbek shevalari yoki tojik tiliga almashgan. X-XII asrlarda Arg'in ko'chmanchi turkiy qabilalar kelib o'troqlashgan. Tarixchi etnograf G'.X.Tog'ayev Surxon vohasi aholisi lahjasi, antropologik tarkibi, turmush tarzi, xo'jalik urf-odatlarini, urug'-qarindoshchilik an'analarining o'ziga xos xususiyatlarini uch guruhga bo'lgan:

1) qadimiy o'troq aholidan iborat, uning tarkibiga urug' - qabilachilik

an'analariga ega bo'lmagan qabilalar kirgan: xo'jalar, chig'atoylar, harduriylar va b.;

2) o'troq aholiga aralashib ketmagan, yarim o'troqlashgan, urug' - qabilachilik tartiblarini saqlagan, mo'g'ullar bosqini va undan keyin kelgan turkiy qabilalar, ularga qarluqlar, kaltatoylar, barloslar, turklar, qatag'onlar taalluqlidir;

3) Shayboniyxon istilosi davridan XV asr oxiri XVI asr boshida kelib joylasha boshlagan Dashti qipchoq o'zbeklari - yuzlar, qo'ng'irotlar, do'rmonlar va boshqalar kirgan [Tog'ayev, 2012:11].

Bu hudud tili haqida Mahmud Koshg'ariy (Koshg'ar, Farg'ona, Toshkent, Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarini birlashtirib "*Xoqoniy o'lkasi*" deb nomlagan) "*Eng ochiq va ravon til*" - bu xoqoniya o'lkasida yashovchilarning tili deb yozgan. A.K.Borovkov "xoqoniya tili"ni Qoraxonlilar tili deb ta'riflagan [Shoniyozov, 1999: 112]. Surxondaryo viloyatining Sariosiyo, Denov, Qumqo'rg'on, Uzun, Oltisoy (oldin Sho'rchi tumani tarkibida bo'lgan qishloqlari), Boysun, Sherobod va Termiz shahrida qarluq sheva, arab va tojik tilli aholi vakillari istiqomat qilishi surishtiruv va tekshirish jarayonida aniqlandi.

O'zbek shevalarini tasniflashda Y.D.Polivanov [Polivanov, 1993:31] Surxondaryo o'zbek shevalarini janubiy o'zbek "j"lovchilar guruhiga kiritadi. Ma'lumki, S.Rahimov Surxondaryo shevalarini Y.D.Polivanov singarmonizmi saqlagan va saqlamaganligiga qarab eronlashmagan, ya'ni singarmonizm xususiyatini saqlagan qipchoq, sof o'zbek shevalariga kiritganligini ta'kidlaydi [Rahimov, 1985: 9.].

A.K.Borovkov shevalar orasidagi munosabatlar va tarixiy lingvistik hodisalarni hisobga olgan holda Surxondaryo shevalarini shayboniy o'zbek "j"lovchi shevalariga kiritgan. A.K.Borovkovning fikricha XI asrda ko'chmanchi o'zbek urug'lari nayman, mang'it, ming, yuz, qirq va boshqa qipchoq shevasi yoki "j"lovchi o'zbeklar O'zbekistonning turli hududlariga va Tojikistonning janubiy-g'arbiy (g'arbi-janubiy) qismiga ko'chib kelib joylashgan. Bu dialektning asosiy xususiyatini quyidagicha ifodalaydi: unlilar soni 8ta

o'zlashayotgan "ā" unlisi bilan 9ta. So'z boshidagi "j" talaffuz qilinadigan so'zlar "ž" bilan aytiladi: *jol* - *žol*, *jomon* - *žāmān* kabi. So'z oxirida keng unilardan keyin kelgan {q, γ} tovushlari "v" tarzida talaffuz etiladi: *tog'* - *tāv*, *bog'* - *bāv*; so'z oxiridagi {k, g, q, γ} tovushlari tushib qoladi: *kiči* < *kichik*, *sāri* < *sariq*; morfologik jihatdan kishilik va ko'rsatish olmoshlarining jo'nalish kelishigidagi formasi: - *mayan*, - *sayan*, - *uyan* shakli. Hozirgi zamon davom fe'li "- *yap*" ning - *žatir* - *jatir* tarzida qo'llanishi kabi xususiyatlar ko'rsatiladi. A.K.Borovkov o'z klassifikatsiyasida Surxondaryo qishloq shevalarini "a"lovchi guruhning "ž"lovchi shevalariga kiritadi [Rahimov, 1985:10]. Y.D. Polivanov va A.K.Borovkov tasnifi Surxondaryo o'zbek shevalari umumiy shevalar qatorida klassifikatsiyaga kiritadi. Keltirilgan faktlar hududning qipchoq shevasiga kirishi haqida ma'lumot beradi. Biroq hududda yashovchi qarluq urug'lari va ularning shevalari alohida o'rganilib tahlilga tortilmagan.

G'.O.Yunusov o'zbek - qipchoq lahjasini ta'riflaganda, Surxondaryo viloya-tini tilga olib, shu hududda yashovchi urug'larni ham sanab, shevalaridan misollar keltiradi [Yunusov, 1935:18] va hududni o'zbek - qipchoq lahjasiga oid deydi. G'.O.Yunusov turk-balos lahjasini tasniflaganda Surxondaryo viloyati hududlarini tilga olmasa ham Denov va Sariosiyo tumanlariga qo'shni bo'lgan Tojikiston Respublikasi Qaratag' tumani va Dalvarzintepa [Yunusov, 1935:21] hududini tilga oladi va shu hududda yashovchi urug' va qabilalarni shevasini turk-barlos shevasiga kiritadi (bu hududda yashovchi qarluq urug'larini tilga olmaydi, ammo turk-barlos lahjasini Mahmud Koshg'ariy "*haqaniy turkchasi*" deb ta'riflaganini yozadi [Yunusov, 1935:21]). Boysun tumani va uning atrofidagi shaharlarda arab, afg'on, tojiklar qarluq qabilasining shevasi haqida ma'lumot berib o'tadi, lekin hududda qarluqlar yashashi haqida fikr bildirmaydi.

V.V.Reshetov Surxondaryo o'zbek shevalarini hudud jihatidan shimoliy -g'arbiy guruhga, etnik belgisiga ko'ra, qipchoq va til xususiyatlariga ko'ra "a"lovchi guruhdagi "ž"lashgan shevalar orasida deb hisoblaydi. V.V.Reshetov bu tillarning asosiy lingvistik xususiyati sifatida fonetik jihatdan kontrast juft unililar {y- γ, o-θ, ы-u, a-ə} [Reshetov va b., 1978] ning mavjudligi natijasida

singarmonizm qonunining saqlanishi, soʻz boshida kelgan yuqori - oʻrta koʻtarilishdagi unilarning {ʊ, ʊo, ʊo} tarzida diftonglashuvi; hozirgi kelasi zamon sifatdoshi -tagʻan shaklida kelishi kabi hodisalarni koʻrsatadi. Shuni aytish lozimki, mavjud tasniflarda Denov shevalari alohida tilga olinmaydi. Surxondaryo shevalarini oʻrgangan S.Rahimov bu hududdagi shevalarni uch guruhga ajratadi [Rahimov, 1985: 13]:

1. *ǰ* - lovchi oʻzbek shevalari (qipchoq lahjasiga xos shevalar);
2. *j* - lovchi oʻzbek shevalari (qarluq lahjasiga xos shevalar);
3. Ikki tilda soʻzlashuvchi shevalar, lekin Denov shevasining

qaysi guruhga kirishini koʻrsatmaydi. Denov shevasi S.Rahimov tasnifining 3- guruhiga kiradi, chunki bu yerda oʻzbek va tojik aholisi yashaydi va ularning oʻzaro bir-biriga taʼsiri bor. Bu umumiy aytilgan fikrni, bizningcha, Denov shevalariga nisbatan qoʻllab boʻlmaydi. Denov tumani hududida tojiklar va qarluqlar zich yashaydigan joylarda tojiklar shevasining qarluq va qipchoq lahjasiga va aksincha, qipchoq, qarluq shevasining tojik shevalariga taʼsiri bor va ayrim hududlarda ikki tillilik mavjud, lekin bu taʼsirni Denov shahar shevasiga taalluqli deb boʻlmaydi, balki, qarluq shevasi tojik va tojiklashgan shevalarga nisbatan dominantlik qiladi. Bunday dominantlik qipchoq shevasiga nisbatan ham mavjud.

Denov tumanida qipchoq, qarluq-chigil-uygʻur va tojik tilli vakillari istiqomat qiladi. Tojik tilining oʻzi ham shevalarga boʻlinadi. Oʻzbek “*j*”lovchi sheva vakillari hududning General, Qoʻybesh (Oʻrta boʻz), Oʻrta qishloq, Hujum, Obodon, Namuna, Oʻzgarish mahallalarida istiqomat qilishadi. Bu guruh shevasida soʻzlovchilar qarluq guruh shevalariga yaqin keladi. Bu sheva unilari: barcha qipchoq shevalari uchun xos unilar: u{u}, y{y}, o{e}, o{o}, a{a}, o [Rahimov, 1985:15]. “*ǰ*”lovchi oʻzbek shevalarining hammasi oʻzining til xususiyati jihatidan butun hududda bir xil emas. Shuning uchun qipchoq lahjasiga xos shevalarning oʻzini ham ikki guruhga boʻlish mumkin: birinchi guruppa sheva vakillari janubiy-gʻarbiy va shimoliy-gʻarbiy qishloqlarda istiqomat qiladi. Shevalardagi singarmonizm hodisasi kuchli. Soʻz shakllarida affikslarning qattiq - yumshoqligi bor: *mīnaǰaqqa* - bu yoqqa, *baryanaqan* - borgan ekan. Bu shevada lablangan unilar oʻrnida u - i mosligi kuzatiladi.

Biltir - *bultur*, *bilamiq* - *bulamiq* [Rahimov, 1985:14]. Bu shevalar yuqori Qashqadaryodagi birinchi tur qipchoq shevalariga birmuncha yaqinlashadi. Qipchoq lahjasiga xos ikkinchi guruh sheva vakillari esa viloyatning shimoliy-sharqiy qismida yashaydi. Bu guruhdagi shevalarda singarmonizm (tanglay ohangdorligi) saqlangan bo'lsa-da, ayrim o'rinlarda bu hodisaning buzilishi kuzatiladi. So'z boshida "ž" tovushi o'rnida ko'pincha "j" ishlatishga urinish seziladi. Bu qarluq lahjasi bilan qo'shnichilik ta'siri natijasi bo'lishi mumkin. Adabiy tilda "ž" tarzida qo'llanadigan so'zlarni "j" tovushi bilan talaffuz qilish holatlari, kelishiklar: qaratqich - tushum, o'rin - payt va jo'nalish kelishigini farqlamasdan qo'llash kabi holatlar uchraydi [S.Rahimov 1985:15].

Kontrast juft unlilarning mavjudligi natijasida singarmoniz qonuniga amal qilishini ko'rsatadi, bu unlilar ma'no farqlashga ham xizmat qiladi: *öt* {o'tmoq} - *ot* {maysa}, *qir* {qirmoq} - *qir* (tepalik); *siz* {olmosh} - *siz* {sizmoq fe'l}; so'z boshida ž < j almashinishi bor: *žaman* - *jaman*, *žer* < *jer*; *q* - *g'*, *k* - *g*, *b* - *p* undoshlari jaranglashadi hamda so'z oxirida tushib qoladi: *ayip* - *ag'*, *qapi* - *qap*, *tayip* - *taq*; *čüčü* - *chuchuk*, *köpri* - *ko'prik*, *ačči* - *achchiq*; ayrim qipchoq shevalardagi kabi *p* > *v*, *b* > *v*, *v* > *b*, *g'*, *g* > *j* hodisalar uchraydi: *tävip* - *topib kel*, *bāva* - *bobo*, *sabin* - *sovun*, *bovin* - *bo'g'in*, *tovra* - *to'g'ra*, *ti:žgän* - *tekkan*; so'z boshidagi *t* - *d* tovush almashish hodisasi ayrim so'zlarda uchraydi: *davuš* - *tovush*, *dütün* - *tutun*. ayrim so'zlarda diftonglashish kuzatiladi. *örmak* - *o'rmak* (gilam to'qish); *q* va *x* undoshi almashishi (q undoshining spirantizatsiyasi) bu hodisa ikkala shevada ham uchraydi: *vax* - *vaqt*, *mäxsät* - *maqsad*, kabi.

"j"lovchi o'zbek sheva vakillari Denov tumanining Denov shahar, Cho'n-tosh, Qoraxon, O'shor, Oybarak, Sohibkor: (*jayigä* - *u yoqqa*, *bayigä* - *bu yoqqa*, *una*: - *ona*, *jura*: - *jo'ra*, *a:vqat* - *ovqat*) Yangiobod, Hazarbog' brigadasi, (ayrim qishloqlarida Farg'onadan ko'chirib kelingan aholi ham yashaydi) Qizil Farg'ona, Oqlar, O'zbekiston mahallalari va b. qishloqlarda istiqomat qiladi.

Denov qarluq shevasining muhim belgilariga to'xtalamiz.

1. Fonetik belgilari:

bu sheva unlilari *u*{ʊ}, *y*{ɣ}, *ɔ*{e}, *o*{o}, *a*{a}, *ɔ* [Reshetov, 1978].

nituvchilar uc
ninglar tashuvchi
masofaviy
ishlar

bu'zi so'zlarda ā - a ga almashadi: *tāmon (tāmān) - tomon, jāmān) - yomon; asān - oson, alāv - olov, amāch - omoch;*
-u < a (*yaqqāri - yuqori*;) almashini kuzatiladi;
-y til o'rta undoshi so'z boshida tushib qoladi: - *iqillī - iqildī -*

-v < p - (*teva - tepa*) almashinishi kuzatiladi.

2. Morfologik belgilari:

Olmoshlar tuzilishi o'ziga xoslik kuzatiladi

ör, oqqa, aqa, ayda // ayga, aner - u yer;

ber, berga, baqa, bayda, beqa - bu yerga // bu yerda;

šer, šerga, šaqa, šayda, šeqa - šu yerga // šu yerda;

hozirgi zamon davom fe'lida - *āp* affiksi ishtirok etadi: *bārāpti,*

kelāpti,

qilāpti, ajtāpti;

- *lar* ko'plik qo'shimchasi ko'plik, hurmat va ta'kid ma'nosida - *la, - ala, -lar* shaklida qo'llanadi: *bāvāmla, bāvamala, bāvāmla - bobo; tāg'amla, tāg'amala, tog'amlar - tog'a; ävāmla, āvāmla // āvāmla, āvāmla - ova // amaki; dadāmla, dadāmla, dadāmlar* ("ava" Oybarik qishloq shevasi, "ova" (*amaki*), O'shor qishlog'i shevasida);

- *ala* qo'shimchasi O'shor qishloq shevasida hurmat ma'nosini ifodalaydi;

Oybarik va Cho'ntosh qishloq shevasida diftonglashish hodisasi mavjud: -*ellik, - undan, - u'tirib;*

Leksik jihatdan ham o'ziga xos farqli xususiyatlarga ega. Masalan: *zomir -qovog'ari, go'ng - pori, buzāv - buzoq, sigir // inag^k // mol, amakvachcha -(o)avavachcha.*

Ikki tillilik Surxondaryoning shimoli-g'arbiy qismida joylashgan qishloq aholisi tilida uchraydi. Har ikkala tilda so'zlashuvchi aholi vakillarining ota -bobolari (o'zbek-tojik) uzoq davrlardan buyon qon-qarindosh va qo'shni yashaganliklari sabab har ikkala tilda so'zlasha oladi va bir-birini tushunadi. Bu sheva unilarini S.Rahimov quyidagicha keltiradi: **u{ʋ}, a, ɔ, {e}, ŷ, y, ɔ** [Rahimov, 1985: 25]. Bu tadqiqotlarda ham, asosan, "ž"lovchi o'zbek shevalarini tasniflagan. Umuman olganda XX asr boshidan to hozirga qadar hududdagi shevalar tasnifida "j"lovchi, ya'ni qarluq va ikki tilli shevalar haqida

tadqiqotlar yetarli emas. Bundan tashqari hududda o'zaro qo'shnichilik va iqtisodiy-ijtimoiy aloqalar natijasida yangi sheva shakllangan.

Kuzatishlarimiz asosida quyidagicha xulosa chiqarishimiz mumkin. Denov tuman shevalari "ž"lovchi va "j"lovchi bo'lib, hali o'rganilmagan oraliq va ikki tilli shevalari bor. "ž"lovchi shevalarning o'zi ham kichik farqlar bilan ikki guruhga bo'linadi. Bu shevaga qarluq va tojik tilining ta'siri sezilib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashirboev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Navro'z, 2016.
2. Jo'rayev B. Yuqori Qashqadaryo o'zbek shevalari. – Toshkent: Fan, 1969
3. Rahimov S. O'zbek tili Surxondaryo shevalari (Fonetikasi, Leksikasi). – Toshkent: Fan, 1985. –B. 10
4. Rahimov S. Surxondaryo O'zbek tili shevalari lug'ati (Fonetikasi, Leksikasi). – Toshkent: Fan, 1995.
5. Reshetov, Shoabdurahmonov, O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1978. – B. 36-37
6. Shoniyozov K., Qarluq davlati va qarluqlar. – Toshkent, 1999. –B. 105.
7. Tog'ayev G'. X., Surxondaryo vohasi etnik tarixidan. – Samarqand: CamDU. 2012. –B. 11
8. Yunusov G'.O. O'zbek lahjalarini tasnifda bir tajriba. – Toshkent: 1935. -B. 21
9. Джураев А. Б. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. – Ташкент: Фан. 1991.
10. Маматкулов А. Узбекский джекающий говор Ширабадского района (фонетика и морфология). АКД. –Ташкент, 1961
11. Мирзаев М. Бухарская группа говоров узбекского языка. АДД, Ташкент, 1965.
12. Пугаченкова А., Ртвеладзе Э.В., Северная Бактрия — Тохаристан, Очерки истории и культуры. – Тошкент: Фан, 1990. - Б. 15.

13. Пугаченкова Г.А., Халчаян. К проблеме художественной культуры Северной Бактрии, – Ташкент: Фан, 1966.

<https://uz.wikipedia.org/wiki/Xolchayon>

https://uz.wikipedia.org/wiki/Denov_tumani

https://uz.wikipedia.org/wiki/Surxondaryo_viloyati

<https://n.ziyouz.com/kutubxona/barcha-kitoblar>

<https://ziyo.net.uz>